

**O'ZBEKISTONDA "ELEKTRON HUKUMAT" TIZIMIDAN G'AZNACHILIKDA  
FOYDALANISH MUAMMOLARI**

**Iriskulov Temur Xayrulla o'g'li**

*Toshkent Moiya Instituti*

*Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti talabasi*

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish, bu borada ma'muriy islohotlarni amalga oshirish bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari kun tartibida turgan masaladir. Bunga asosiy sabab bir tomondan, jahon taraqqiyotidagi misli ko'rilmagan ijtimoiy siljishlarning ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va axborot texnologiyalarining rivojlanishidir.

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini rivojlantirish orqali byudjet ijrosi samaradorligini oshirish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bugungi kunnig asosiy talabidir. Bugun mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va kundalik hayotga izchil joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek, Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosini ta'minlash maqsadida jahon tajribasida mukammal sanalgan g'aznachilik va davlat xaridi tizimi tashkil etildi. Axborot texnologiyalari asosida davlat xaridi tizimida byudjet tashkilotlarining tovar yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarida dastlabki nazoratga katta ahamiyat berildi.

Birgina 2018 yilning o'zida raqamli televideniye qamrovi 88 foizdan 100 foizgacha yetkazildi. Mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 7 foizga oshib, 22,8 millionga yetdi. 2017-yilda axborot texnologiyalari sohasida 7,7 trillion so'mlik yoki 2016-yilga nisbatan 26 foizga ko'p xizmat ko'rsatildi. Investitsiya dasturi doirasida 260 million dollar o'zlashtirildi.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – bu nafaqat davlat boshqaruvining tegishli sifat darajasida axborot-texnik tizimi tashkil etilishi, shu jumladan istalgan mamlakatning jamiyatida mavjud bo'lgan munosabatlar va aloqani sifat jihatidan boshqacha tashkil etish va boshqarish hamdir.

Hozirgi kunda g'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi axborot tizimi" (O'RMVAT) deb ataladi. Byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar O'RMVAT ga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflar, xududiy belgilari, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Daromadlar avtomatik ravishda tegishli byudjetlarga belgilangan normativlar asosida o'tkaziladi. Daromadlarning yillik va oylik prognoz qilish bilan bog'liq tadbirlar o'zgarishsiz qolsada, tushumlarni o'tkazish endilikda banklar tomonidan emas, O'RMVAT tomonidan o'tkaziladi.



1-rasm. G'aznachilikning maxsus axborot dasturi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

- aloqa va axborotlashtirish sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan meyoriy-huquqiy baza takomillashib bormoqda;
- telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishda ham bir qator yutuqlarga erishilmoqda;
- internet bozori va axborot-kommunikatsion tizim sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda;
- davlat boshqaruv o'rganlari Internet tarmog'idagi axborot resurslarini rivojlantirish choralari ko'rilmogda;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash ishlari takomillashtirilmoqda.

Joriy yil yurtimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb e'lon qilindi. Barcha sohalarda ochiq-oshkoralik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida "Elektron hukumat" tizimi keng joriy etilmoqda. Xususan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 178 ta xizmat

yo'lga qo'yilib, aholining vaqti va xarajatlari tejarmoqda. Elektron hukumatga o'tishdan asosiy maqsad:

- 1) Aholiga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish;
- 2) Hukumatning fuqarolar va buyurmachilar uchun ochiq-oydin ish olib borishini takomillashtirish va rivojlantirish;
- 3) Hukumat, fuqarolar va xo'jalik sub'ektlari o'rtasida electron shaklda axborot almashinuvini ta'minlash;
- 4) Ma'muriy harajatlarni kamaytirish.

“Elektron hukumat” – o'z vazifalarini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida bajarib, uning jamiyatdagi boshqaruv rolini kuchaytiradi. Davlatning integratsiyalovchi roli bunda uchta nimtizimli munosabatlarda namoyon bo'ladi. Hukumat muassasalarining o'zaro va mahalliy davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi; Hukumat muassasalari bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqa qilishi; Hukumat muassasalari bilan biznes sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqa qilishi.

Davlat boshqaruv organlarida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'lashning afzalliklari:

- Idoralararo elektron axborot almashinuvini ta'minlaydi;
- Davlat boshqaruvida samaradorlikni oshiradi;
- Davlat boshqaruviga ketadigan harajatlarni pasaytiriladi;
- Davlat hokimiyati bilan fuqarolar va xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatni yaxshilaydi;
- Har qanday to'lovlarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish imkonini beradi.

Lekin tan olish kerak hozirda “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishiga, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashishga to'sqinlik qiluvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

a) birinchidan, axborotlashtirish sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va davlat standartlarining ijro etilishi ustidan nazorat va tekshirishning amaldagi mexanizmi zamonaviy talablarga muvofiq emasligi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pasayishiga olib kelmoqda;

b) ikkinchidan, axborot xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul yagona vakolatli organning mavjud emasligi mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning samarasizligiga sabab bo'lmoqda;

c) uchinchidan, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan joriy etilayotgan apparat vositalari va dasturiy mahsulotlarni ekspertiza va

sertifikatsiyadan o'tkazish tizimidagi kamchiliklar ularning "Elektron hukumat" tizimiga jadal integratsiyalashuvini susaytirmoqda;

d) to'rtinchidan, telekommunikatsiya, axborot va kiberxavfsizlik sohasidagi nazorat tizimi, muhim axborot infratuzilmasining mukammal emasligi davlat axborot tizimlari obektlari, raqamli iqtisodiyot va shaxsiy ma'lumotlarning zaiflashuviga olib kelmoqda. Demak O'zbekistonda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'lash to'g'risida biz yanayam chuqurroq o'ylab ko'rishimiz va bu sohani yanada rivojlantirishimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmuxmedova B.I. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2018. - 576 b.
2. Tashmuxeimedova D. G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod- Moliya", 2018. 228 b.
3. Tuychiyev A., Abidov M. Byudjet tasnifi. O'quv qo'llanma. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2018. 200 b.
4. Kasimova G. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. Toshkent.«IQTISOD-MOLIYA. 2015. 472 b.